

---

## MAHALLA AHILLIGI - MAHALLA OBODLIGI

### **Mahalla ahilligi - mahalla obodligi**

Men Navobod mahalla raisi sifatida mahallamizning aholisi va fuqarolaridan g'oyatda minnatdorman. Chunki bizning mahallamiz bevosita xalqimizning jipsligi va birtanu birjonligi bois, "Tashabbusli byudjet" loyihasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Mazkur loyihada bizning mahalla 1 522 ta ovoz bilan g'oliblikni qo'lga kiritdi va Prezidentimizning bevosita e'tibori tufayli mahallamizning ko'chalari yanada o'zgacha chiroy kasb etadi, 1 milliard so'm ortiqroq mablag' evaziga mahallamiz ko'chalariga lotoklar o'rnatiladi. Bu islohotlar samarasi deb bilaman va bu ezgu ishning asosiy tashabbuskori Prezidentimizga butun mahalla ahli nomidan samimiy minnatdorlik izhor etaman.

### **Zayliddin Gadoyboyev - Navobod mahalla fuqarolar yig'ini raisi**

#### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-08 14:55:15